

XALQARO SPORT MUSOBAQALARINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISHNING HUQUQIY JIHATLARI

Oybek Kasimov

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro sport musobaqalari tushunchasi, ularni o'tkazishga oid umumiy qoidalar, xalqaro sport musobaqalarining reglamentatsiyasi kabi masalalar muhokama qilinib, muvaffaqiyatli, samarali xalqaro sport tadbirini tashkil qilish uchun zarur harakatlar tartibi aniqlangan.

Kalit so'zlar: xalqaro sport musobaqasi, xalqaro sport musobaqasi tashkilotchilari, xalqaro musobaqalarni o'tkazish qoidalari, xalqaro musobaqa tashkiliy qo'mitasi, musobaqa dasturi.

Kirish

Sport musobaqalari – sportning muayyan turi bo'yicha sportchilar yoki sportchilar jamoalari o'rtasida musobaqa ishtirokchilaridan eng yaxshisini aniqlash maqsadida tashkilotchi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy-huquqiy hujjat asosida o'tkaziladigan bellashuvdir. Xalqaro sport musobaqalari terma jamoalar, bir necha davlatga tegishli jamoalar (klublar) va sportchilar o'rtasida o'tkaziladi.

Sport musobaqalari sportchilarning malakalarini oshirishda katta ahamiyatga ega. Ular jismoniy, texnik, taktik, ruhiy, funksional tayyorgarliklarni aniqlashga va takomillashtirishga yordam beradi hamda qilinayotgan mehnatning natijasini ko'rsatadi.

Tanlangan sport turi yoki bir necha sport turi bilan tizimli shug'ullanib, sport mahoratini muntazam ravishda oshirib boradigan va natijalarga erishish maqsadida sport musobaqalarida doimiy qatnashuvchi jismoniy shaxs sportchi hisoblanadi. Musobaqada tibbiyot xodimlarining tegishli ruxsatiga ega bo'lgan sportchilargina ishtirok etishi mumkin.

Musobaqa tashkilotchilari – sport musobaqalarini tashkil etishning tashabbuskori bo'lgan musobaqani tashkiliy, moliyaviy va huquqiy ta'minlaydigan yuridik yoki jismoniy shaxs hisoblanadi.

Murabbiy – tegishli ruxsatnomaga ega o'quv-mashg'ulot va jismoniy tarbiya va sport ommaviy tadbirlarga sportchilarni tayyorlovchi va sport natijalariga erishish maqsadida tayyorgarlik jarayonini boshqaruvchi jismoniy shaxs hisoblanadi.

Murabbiylar musobaqaning ochilish, taqdirlash va yopilish marosimlarida, o'yinlarda ishtirok etadigan sportchilar ro'yxatini taqdim etadilar. Musobaqa ishtirokchilari jamoalar o'yinchilari – sportchilar, murabbiylar, jamoa rahbarlari va vakillari, hakamlar, tibbiyot xodimlari va maxsus hujjatlarda huquqiy maqomi belgilangan boshqa shaxslar hisoblanadi.

Musobaqalarning muvaffaqiyatli o'tishi ko'p jihatdan puxta va chuqur o'ylangan tayyorgarlikka bog'liq. Butun tayyorgarlik jarayonini bir nechta bosqichga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) musobaqa o'tkazish joyi va vaqtini aniqlab olish;

2) musobaqa o'tkazish qoidalarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

3) musobaqani o'tkazish uchun mas'ul shaxslarni ajratish (tashkiliy qo'mitani tuzish);

4) ashkiliy qo'mita raisi (Bosh hakam) va bosh kotibini tanlab olish va tasdiqlash.

Musobaqalarga tayyorgarlikning ikkinchi bosqichiga quyidagilar kiradi:

1) musobaqani o'tkazish joyini tanlash va uni jihozlash;

2) inventarni tayyorlash;

3) ishtirokchilarni joylashtirish joylarini tayyorlash;

4) ovqatlanishni tashkil qilish;

5) mashg'ulotlar uchun joylarni tayyorlash;

6) kotibiyat va hakamlar jamoasini shakllantirish;

7) zarur hujjatlarni tayyorlash;

8) musobaqa haqida dastlabki axborotni berish.

Musobaqalarga tayyorgarlikning uchinchi bosqichida quyidagilar amalga oshiriladi:

1) ishtirokchilarni qabul qilish va joylashtirish (Musobaqaga kelgan hakamlar ishtirokchilardan alohida joylashtirilishlari kerak);

2) mandat komissiyasining ishtirokchilarni musobaqaga qo'yish bo'yicha faoliyati;

3) musobaqalarning shartlari bilan tanishtirish bo'yicha ishtirokchilarning umumiy majlisi.

Materiallar va tadqiqot usullari.

Musobaqa o'tkazish vaqtini belgilash sport taqvimining qanday tuzilganligiga bog'liq. Oqilona tuzilgan va sekin-asta amalga oshiriladigan musobaqalarning taqvimiy rejasi sportni keng yoyishga, yoshlarni ko'proq jalb qilishga, o'quv-mashq jarayonini doimiy tizimli olib borishga, sport tayyorgarlik darajasining oshishiga zamin yaratadi.

Muayyan sport turi bo'yicha xalqaro musobaqalarning kelgusi sport yiliga taqvimiy rejasi tegishli xalqaro federatsiya tomonidan tuziladi. Musobaqa nizomi taqvimda ko'rsatilgan muddatlarga asoslanib ishlab chiqiladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, musobaqa nizomi nafaqat tashkiliy hujjat bo'lib hisoblanadi, shuningdek, u musobaqaoldi tayyorgarlik davridagi o'quv-mashq faoliyatining yo'nalishini belgilovchi hujjat sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Musobaqa nizomi ishlab chiqilgandan so'ng xarajatlar smetasi tuzilib, smeta asosida musobaqani tashkil etish uchun kerakli mablag' ajratiladi. Smetani tuzishda musobaqa nomi, o'tkazish joyi va muddatlari, hakamlar va ishtirokchilar soni ko'rsatiladi. Smetada bino ijarasi, musobaqa joyining badiiy bezatilishi, transport va kanselyariya mollari bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek, snaryadlarni o'rnatish bo'yicha va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar ham hisobga olinadi (ishchi, shifokorlar, hamshiralar va boshqalar).

Yirik miqyosli musobaqalar tashkil qilinganda 10-15 kishidan iborat tashkiliy

qo'mita tuziladi. Qo'mita faoliyat rejasiga musobaqalarning muvaffaqiyatli o'tishi uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kiradi. Tashkiliy qo'mita raisi (Bosh hakam) sifatida musobaqa darajasiga mos toifaga ega bo'lgan hakam taklif qilinadi. Musobaqaning muvaffaqiyatli o'tishi ko'p jihatdan Tashkiliy qo'mita raisining tashkilotchilik qobiliyatiga, adolatligiga, prinsipialligiga, irodaliligiga va intizomligiga bog'liq.

Xalqaro musobaqalar ochiq joylarda va binolar ichida ham o'tkazilishi mumkin. Musobaqa o'tkazish joyi shiorlar, plakatlar, musobaqa jarayonini aks ettiruvchi jadvallar, grafiklar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Musobaqa o'tkazish joyi yaqinida ishtirokchilar, hakamlar, tibbiyot xodimlari uchun yechi-nish xonalari, issiq suvli dush xonalari tashkil etilishi lozim.

Musobaqa o'tkazish joyi radiofikatsiya qilinib, bosh hakam va axborotchi hakami stollariga mikrofonlar o'rnatiladi.

Oldindan berilgan arizaga binoan musobaqa o'tkazish va ovqatlanish joyidan uncha uzoq bo'lmagan hududda yetib kelgan jamoalarni joylashtirish uchun maxsus joylar tashkil qilinishi kerak. Ular uzoqroqda tashkil qilingan bo'lsa, musobaqa ishtirokchilari transport bilan ta'minlanishi kerak.

Boshqa shahar va davlatlardan kelgan sportchilar musobaqadan oldin mashg'ulotlar olib borishlari uchun ularga issiq suvli dush hamda tibbiyot tarozisi mavjud sport zali ajratilishi kerak.

Musobaqalarni o'tkazish uchun zarur hujjatlar – bu musobaqa bayonnomalari, ishtirokchi kartochkalari, hakamlarning yozuvlari, jadvallar va boshqalar.

Musobaqa haqida axborot berish va uning borishini keng yoritish uchun ommaviy axborot vositalari bilan aloqa o'rnatish ham tashkiliy qo'mitaning asosiy vazifalaridandir.

Musobaqa ishtirokchilari, murabbiylar, vakillar va hakamlar uchun maxsus eslatma tuzilib, unda:

- musobaqa dasturi;
- tibbiy va mandat komissiyalarining ishlash joyi va vaqti;

– emir yo‘l vokzallari va aeroportlar manzil va telefon raqamlari;

– mehmonxonalarining (sportchilarni joylashtirish joylari) manzil va telefon raqamlari ko‘rsatib o‘tiladi.

Musobaqalarga qo‘yish masalalari bilan mandat komissiyasi shug‘ullanib, komissiya tomonidan ishtirokchilarning musobaqa nizomi bilan taqdim etilishi belgilangan ariza va hujjatlari ko‘rib chiqiladi. Ishtirokchilarni musobaqalarga qo‘yilish bo‘yicha javobgarlik to‘liqligicha bosh hakam va bosh shifokor zimmasiga yuklatiladi.

Musobaqa boshlanishidan bir kun (yoki bir necha kun) oldin sportchilar, murabbiylar, vakillar va hakamlar uchun musobaqa tashkilotchilarining majburiy ishtiroki ta‘minlangan holda umumiy yig‘ilish o‘tkaziladi. Ushbu yig‘ilishda hakamlar hay‘ati tanishtiriladi, musobaqani o‘tkazish tartibi va mandat komissiyasining jamoa va sportchilarning musobaqaga qo‘yilish bo‘yicha xulosasi e‘lon qilinadi. Shuningdek, musobaqa qonun-qoidalari va nizomining ayrim bandlari tushuntiriladi, qur‘a tashlash tartibi belgilanadi. Yig‘ilish yakunida musobaqaning rasmiy ochilish va yopilish marosimlarining tartibi haqida axborot beriladi.

Umumiy yig‘ilish o‘tgandan so‘ng hakamlar hay‘atining birinchi majlisi o‘tkazilib, unda hakamlar hay‘ati tarkibi aniqlashtiriladi, yo‘riqnoma bilan tanishtiriladi.

Musobaqadagi hakamlar hay‘ati tomonidan amalga oshiriladi.

Sport musobaqalari tizimi jismoniy tarbiyaning hayotiy taraflaridan biri sifatida o‘zida yangi avlodni shakllantirishga jamiyatning ommaviy ta‘sirini aks ettiradi.

Sport musobaqalari qoidalari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, ular musobaqalarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha zaruriy shart-sharoit va tartibni belgilab beruvchi va ishtirokchilar hamda hakamlar xulq-atvorini tartibga soluvchi muhim me‘yoriy qoidalarni o‘zida ifodalaydi.

Natijalar va ularning muxokamasi.

Istalangan musobaqalarga tayyorgarlik musobaqa to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqishdan boshlanadi. Nizom musobaqalarni o‘tkazuvchi xalqaro tashkilot

tomonidan ishlab chiqiladi. Musobaqaning sifatli o‘tishi nizom qanday tuzilganligiga, unda musobaqani tashkillashtirishda barcha o‘ziga xos jihatlarining hisobga olinganligiga bog‘liq.

Musobaqa nizomi qisqa va aniq tuzilgan punktlardan iborat bo‘lishi kerak:

1. Maqsad va vazifalar. Musobaqaning maqsadi (gimnastikani keng yoyish, eng kuchli gimnastikachilarni yoki gimnastika jamoalarini aniqlash va h.k.) uning miqyosidan kelib chiqishi kerak.

2. O‘tkazilish vaqti va joyi. Musobaqa o‘tkazish kunlari va o‘tkaziladigan shahri (bazasi) belgilanadi. Musobaqa ishtirokchilarining soni aniqlanadi. Musobaqani o‘tkazish kunlarini belgilashda ishtirokchilarning sonini bilish muhim ahamiyatga ega. Musobaqa necha kun davom etishini bilgan holda uning muddatlarini ham aniq belgilash mumkin.

3. Musobaqa rahbariyati. Musobaqani o‘tkazish bo‘yicha umumiy va bevosita rahbarlik vazifalari kimning zimmasiga yuklatilishi belgilanadi.

4. Hakamlarlik. Bosh hakam, bosh kotib, bosh hakamning tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha o‘rinbosarlari va ularning toifasi ko‘rsatiladi.

5. Musobaqa ishtirokchilari. Bu bo‘limda ishtirokchilarning yosh toifalari ko‘rsatiladi.

6. Musobaqa ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar. Mazkur bo‘limda mandat komissiyasiga taqdim etiladigan zarur hujjatlar, shuningdek, musobaqaga qo‘yilish shartlari ko‘rsatiladi (yosh, malaka, sug‘urta).

7. Musobaqani o‘tkazish shartlari. Bu bo‘lim musobaqa qoidalariga qat‘iy muvofiqlikda tuziladi (shaxsiy, jamoaviy, shaxsiy-jamoaviy). Musobaqa qaysi tizim bo‘yicha o‘tishi ko‘rsatiladi (yutkazgan chiqib ketishi, ikki mag‘lubiyatdan so‘ng chiqib ketish, aylana bo‘yicha).

8. Jamoa va ishtirokchilarni taqdirlash. Mazkur bo‘limda sovrinli o‘rinlarni egallagan sportchilar yoki jamoalar, shuningdek, yuqori texnikani namoyish etayotganlar, murabbiylar qanday taqdirlanishlari haqidagi qoidalar kiritiladi.

9. Musobaqalarni o‘tkazish dasturi.

10. Ishtirokchi va tomoshabinlar xavfsizligini ta'minlash. Ushbu bo'limda musobaqani o'tkazish joyi tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablarga mosligi, jamoat tartibini saqlovchi hamda tez tibbiy yordam ko'rsatuvchi organlar ko'rsatib o'tiladi.

11. Musobaqada ishtirok etish uchun arizalar. Bu bo'limda dastlabki va yakuniy arizalarni berish muddatlari haqida gapiriladi.

12. Moliyaviy xarajatlar. Bu bo'limda musobaqani tashkil etish, yo'l, yashash va ovqatlanish bilan bog'liq xarajatlar haqida so'z yuritiladi.

13. Boshqa shartlar. Bu bo'limda musobaqa ishtirokchilari va ularning vakillariga qo'yiladigan qo'shimcha talablar belgilab qo'yiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, xalqaro sport tashkilotlarining yirik xalqaro sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazishga oid huquqiy me'yorlari nafaqat musobaqa jarayonini, balki butun bir xalqaro musobaqaga taalluqli tadbirlarning moliyaviy, huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi. Buni xalqaro havaskor boks federatsiyasi AIBA ning xalqaro musobaqalarni tashkil etishga oid huquqiy normalari misolida ko'rib chiqamiz.

Boks bo'yicha xalqaro musobaqa tashkil etish qoidalari AIBA tomonidan huquqiy tartibga solinadi. O'z faoliyati doirasida AIBA Olimpiya turnirlari, Milliy terma jamoalari o'rtasida jahon chempionatlari, yoshlar terma jamoalari o'rtasida jahon chempionatlari, o'smirlar o'rtasida jahon chempionatlarini tashkil etadi va o'tkazadi.

AIBA, Konfederatsiya va ularning a'zolari, yurisdiksiya ostida o'tkaziladigan, boks bo'yicha musobaqalar va boshqa turnirlarda kelib chiqqan dastlabki barcha huquqlarning mulkdori hisoblanadi. Ushbu huquqlar moliyaviy huquqning har qanday ko'rinishi, audiovizual tiklash va radio yozuv, translyatsiya, multimedik huquqlar, marketing va targ'ibot, shuningdek, intellektual huquq, jumladan, emblema va mualliflik huquqini o'z ichiga oladi.

Nizomga ko'ra, tashkilotchi davlat quyidagi talablarni bajarishi lozim:

– tashkilotchi davlat xalqaro musobaqa ishtirokchilarini (jurnalistlarni inobatga olgan holda) viza bilan bog'liq masalalarni ijobiy hal qilishni kafolatlashi lozim;

– musobaqada o'yin o'tkazuvchi terma jamoalar davlat madhiyasi yangrashi va davlat bayrog'ini ta'minlashi lozim;

– texnik uchrashuvlarga tayyorgarlik ko'rishni tashkil etadi;

– musobaqa o'tkaziladigan barcha maydonlarda zarur tibbiy xizmatni ta'minlaydi;

– doping nazorat uchun zarur bo'lgan xona va laboratoriyalarni mas'ul xodimlarga ta'minlab beradi;

AIBA mutasaddi xodimlari va hakamlar mehmonxonalarda terma jamoalardan alohida joylashtirilishini ta'minlaydi. Qoida tariqasida mutasaddi xodimlar bir kishilik hamda hakamlar ikki kishilik xonalar bilan ta'minlanadi.

– terma jamoalar hamda AIBA uchun alohida konferens-zallar bilan ta'minlanishi shart;

– barcha mehmonxonalar pochta qutisi, Internet xizmati va ma'lumotlar taxtasi bilan ta'minlanishi shart;

AIBA mutasaddi xodimlari va terma jamoalar mashg'ulot o'tkazish va musobaqada ishtirokini o'z vaqtida ta'minlash uchun transport xizmati belgilangan talablar asosida ta'minlanadi. Transport turi, alohida belgi va raqamlarini tashkilotchi davlat yoki musobaqa tashkiliy qo'mitasi belgilab beradi;

AIBA mutasaddi xodimlari va terma jamoalarning xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'radi;

Musobaqalar o'tuvchi barcha sport saroylarda hamda mehmonxonalarda matbuot anjuman zallari, shuningdek, sharhlovchilar uchun xonalar maxsus jihozlar bilan ta'minlanadi. To'g'ri va yaxshi tashkil qilingan musobaqalar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki musobaqalar faqat jismoniy sifatlargagina (kuchlilik, chidamlilik, tezkorlik va egiluvchanlik) emas, balki ruhiy-jismoniy sifatlarga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Musobaqa davrida sportchilarning tashkilotchilik, o'zini tuta bilishlik, jamoa maqsadini o'z maqsadidan

yuqori qo'ya olishlik kabi yana bir qancha sifatleri ham takomillashadi. Shu sababli xalqaro musobaqalarda irqchilikka qarshi kurash, gender tengligi kabi dunyoda global muammolarga ham e'tibor beriladi. Mazkur me'yorlarni buzgan shaxslarga nisbatan nizomda javobgarlik choralari belgilab berilgan.

Xalqaro musobaqaning subyektlari – musobaqaga mas'ullar va unda ishtirok etuvchilari hisoblanadi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- AIBA mutasaddi xodimlari;
- tashkiliy qo'mita;
- terma jamoalar yoki jamoa a'zolari;
- hakamlar hay'ati.

Musobaqa tashkilotchilariga AIBA xodimlari, davlatning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maxsus vakolatli organi, musobaqa o'tkaziladigan shahar ijro organi, Milliy olimpiya qo'mitasi, tashkilotchi davlatning boks federatsiyasi kabi tashkilotlar kiradi. Ular bevosita musobaqaning tashkil etilishi va o'tkazilishiga rahbarlik qiladi. Zarurat tug'ilganda boshqa manfaatdor tashkilotlar ham tashkiliy qo'mitaga kiritilishi mumkin.

Tashkiliy qo'mita quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

– musobaqani tashkil etishning umumiy qoidalarini hamda axborot ta'minoti, homiylarning huquqlari va musobaqani ommaviy axborot vositalari orqali yoritishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;

– qonun hujjatlariga muvofiq, musobaqani tashkil etish va o'tkazishda xavfsizlik choralari ko'radi. Huquq tartibot organlari bilan mazkur sohada hamkorlik asosida ishni tashkil qiladi;

– ishtirokchilarni tibbiy nazorati va xizmatini tashkil qiladi.

Musobaqa maqsadi uning yoshlar yoki kattalar o'rtasida o'tkazilayotganligi bilan farqlanishi mumkin. Yoshlar o'rtasida xalqaro musobaqalarni tashkil etish va o'tkazishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar:

– yuqori malakali sportchilarni tarbiyalab, terma jamoalar uchun zaxira tayyorlash;

– turli jamoalar o'z tajribalari bilan o'zaro o'rtoqlashish;

– yoshlarni jismonan baquvvat, barkamol va sog'lom bo'lishiga, chiniqishiga, umumiy ish qobiliyatini o'sishiga yordam berish;

– boksni rivojlantirish va xalqaro maydondagi o'rnini qaror toptirish;

– o'sib kelayotgan yosh avlodda sport bilan shug'ullanish, sog'lom turmush tarziga amal qilish, ma'naviy va jismoniy komilikka intilish zarurligini tushunishni shakllantirish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni o'quvchi yoshlarning kundalik turmush tarziga singdirish.

Kattalar o'rtasida o'tkaziladigan xalqaro musobaqalarning maqsad va vazifalari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

– xalqaro olimpiya harakati va boks sport turini xalqaro miqyosda targ'ib qilish;

– bokschilarning mahoratini oshirish;

– boks sport turi bo'yicha g'oliblarni aniqlash;

– xalqaro musobaqa doirasida jamoalar o'rtasida o'zaro tajriba almashish.

Ijroiya qo'mitasi xalqaro musobaqalarni tashkil etish bo'yicha qoidalarni e'lon qilish uchun mas'uldir va Konfederatsiya yoki milliy federatsiya faoliyatiga muvofiq taqvim bo'yicha xalqaro musobaqalar to'g'risida qaror qabul qiladi. AIBAning ruxsatisiz hech qanday xalqaro musobaqalar o'tkazilmaydi.

Ishtirokchi jamoalarning musobaqada ishtirok etishini o'zida aks ettiruvchi murojaati va ularga ruxsat berilishi nizomga asosan, belgilangan muddatgacha amalga oshiriladi. Buning uchun ishtirokchi davlat Tashkiliy qo'mitaga rasmiy xat bilan murojaat qiladi. Musobaqa boshlanishidan oldin jamoa rahbarlari o'yinchilar haqida ma'lumotlar ilova qilingan ro'yxatni Mandat komissiyasiga taqdim etadi. Unda jamoaning rasmiy nomi, sportchilarning familiyasi, ismi, sharifi, tug'ilgan yili, turar joyi kabi ma'lumotlar hamda ularni tasdiqlovchi hujjatlar va kseronusxalari, shuningdek, tibbiyot xodimlarining tegishli tartibda sportchini musobaqaga tibbiy layoqatini tasdiqlovchi hujjati ilova qilinadi.

Xalqaro musobaqa ishtirokchilari tashkilotchi davlat qonunchiligiga, musobaqa nizomiga rioya qilishlari hamda

raqiblari, hakamlar va muxlislarni hurmat qilishlari shart.

AIBA tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlarda tashkilotchi davlat, mas'ul tashkilotlar va ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar juda aniq belgilab berilgan bo'lib, musobaqani yuqori darajada o'tishini ta'minlaydigan turli xalqaro xususiy shartnoma shakllari barcha sub'yektlarga havola etilgan.

Shuningdek, AIBA tomonidan o'tkaziladigan xalqaro musobaqalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

– jahon chempionatlari: o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionati, yoshlar o'rtasidagi jahon chempionati, jahon kubogi, Olimpiya saralash turnirlari, AIBA matchlari, xotin-qizlar jahon chempionati.

Kontinental yoki hududiy chempionatlar: Kontinental Konfederatsiya yoki qit'adagi mintaqaviy organ tomonidan tashkil etilgan kontinental yoki hududiy chempionatlar.

Milliy Chempionat: Milliy turnirlarga oid barcha huquqlar, ularni tashkil etadigan Milliy Federatsiyaga tegishlidir.

Musobaqa o'tkazish uchun kerakli hujjatlar – bu musobaqa bayonnomalari, qatnashchilar kartochkalari hakam yozuvlari, grafiklar va boshqalar.

AIBA ruxsatisiz hech kim AIBAning huquqlari, nomi, logotip va boshqa shaxsiy intellektual obyektlaridan foydalanishga haqli emas. AIBA, Konfederatsiya va ularning Milliy Federatsiyalari, musobaqa, turnir va boshqa namoyishlarni translyatsiya qilishga ruxsat beradi. Ijroiya Qo'mita qanday chegaralarda huquqdan foydalanish mumkinligi masalasini hal qiladi, shuningdek, buning uchun alohida reglament tayyorlaydi. Ijroiya Qo'mita har bir xalqaro (mintaqaviy yoki hududiy) turnir uchun to'lovlar summasi to'g'risidagi qarorni qabul qiladi. Ijroiya Qo'mita, ushbu huquqlar yakka yoki uchinchi tomon bilan shuningdek, butunlay uchinchi tomon orqali foydalanilishi mumkinligi masalasini hal etadi. Jamoa rahbarlari hujjatlarni rasmiylashtirilish va musobaqalarda ishtirok etish bo'yicha tegishli hujjatlarni taqdim etishga mas'ul hisoblanadi. Belgilangan muddatda yoki tegishli tartibda

hujjatlarni taqdim etmagan jamoalar musobaqada ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

Musobaqaning ochilish va yopilish marosimi ssenariylari musobaqa tashkilotchilari tomonidan tuziladi. Unda AIBA tomonidan belgilangan huquqiy qoidalar va tashkilotchi davlat qonunchiligi asosida tegishli xalqaro boks va davlat ramzlaridan foydalaniladi.

Agar xalqaro musobaqa chog'ida musobaqani o'tkazishga oid nizom asosida hal qilib bo'lmaydigan sport nizolari yuzaga kelsa, Tashkiliy qo'mita va Hakamlar hay'ati nizolarni tegishli tartibda hal qiladilar.

Umumiy vazn o'lchash – bokschilarni ro'yxatga olish va tibbiy ko'rik. Bu musobaqalarning birinchi kunida birinchi jang oldidan o'tkaziladi. Bokschilarning nomlari, agar ular muvaffaqiyatli tarzda ro'yxatdan o'ta olsalargina, qur'a tashlash uchun qabul qilinadi. Talabnomaga kiritilgan barcha bokschilar butun musobaqa davomida qaysi vazn toifasida qatnashishlari to'g'risida qaror chiqarish maqsadida umumiy vazn o'lchashda ishtirok etishlari shart. Vazn og'irligini o'lchash qatnashchilar o'rnashgan joyda o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Hakamlar hay'ati asosan, mahalliy hakamlardan jamlanadi (musobaqa turiga qarab). Tegishli federatsiya kerak bo'lgan hakamlar, kotib yordamchisi radio axborotchilar va musobaqa bosh shifokorini ajratadi.

Ma'lumki, bir juft qo'lqop ko'pi bilan 5-6 jangda ishlatiladi. Shu sababli musobaqalarni o'tkazishda kerakli miqdorda qo'lqoplar bo'lishi lozim. Qatnashchilar sonini bilgan holda janglar sonini aniqlash mumkin va bundan kelib chiqib, musobaqalarga kerak miqdorda qo'lqoplar olish mumkin.

Havaskor bokschilar xalqaro musobaqalar qoidalari qatnashchilarning, shuningdek, hakamlarning huquq va majburiyatlarini yo'lga qo'yish, hamma qatnashchilar uchun bir xil sharoit yaratishni maqsad qilib olgan shartlar ro'yxatini o'z ichiga oladi. Ular rasmiy xarakterga ega bo'lib, barcha qatnashchilar uchun majburiydir. Musobaqa qatnashchi-

larining kuchlarini tenglashtirish uchun ularni yosh guruhi, vazn kategoriyasi va sport razryadlariga qarab ajratiladi. Qoidalar sog'liq va sport tayyorgarligi bo'yicha shifokor-pedagogik nazorat talablariga asoslanib, qatnashchilar musobaqada qo'yilishi mumkin bo'lgan shartlarni aniqlab beradi. Qatnashchilarning sog'lig'ini himoya qilish va shikastlanishini kamaytirish maqsadida ringda bokschilarning harakatlari cheklab qo'yiladi, sog'liqqa zarar yetkazish mumkin bo'lgan usullarni qo'llash taqiqlanadi, qatnashchilarning yoshi va sport tayyorgarligiga qarab, jangning davomiyligini reglamentlanadi.

Boks bo'yicha musobaqalar uch tizimdan bittadan o'tkazilishi mumkin:

a) birinchi mag'lubiyatdan keyin chiqib ketish bilan.

b) ishtirokchi (jamo) ikkinchi bor mag'lubiyatdan keyin musobaqadan chiqib ketish.

v) aylanma (faqat jamoalar uchun)-bunda ishtirok etuvchi jamoalar o'zaro bir martadan uchrashuvlar va har bir ishtirokchi ko'pi bilan ikki marta o'tkazish mumkin

Musobaqalarda hakamlik hakamlar hay'ati tomonidan amalga oshirilib, uning tarkibiga bosh hakam, hakamlar hay'ati a'zolari, ring bo'yicha va ringdan tashqari hakam, bosh kotib, bosh hakam, hakam-xronometrist, ishtirokchilar oldidagi hakam, axborotchi hakam, musobaqa komendanti kiradi.

Har bir jangda ring ichidagi hakam (referi), jang paytida ring tashqarisida ringning uch yoki to'rtta tomonida joylashgan 5 (3) ta yon tomon hakamlari hakamlik qiladilar.

Hakamlar malakasini oshirishga har kungi hakamlik natijalarini muhokama qilish yordam beradi, bunda olib borilgan hakamlikning yaxshi va yomon tomonlari ko'rsatiladi, har bir hakamning ishi baholanib, qo'shimcha yo'l-yo'riq ko'rsatiladi.

Ko'pchilik ringdan tashqaridagi hakamlarning g'olibni aniqlashdagi natijasi hal qiluvchi bo'lib, hech kim tomonidan o'zgartirish va yo'qqa chiqarish mumkin emas.

Bosh hakamlik kollegiyasining qarorini hech kim o'zgartira olmaydi.

Ring ichidagi hakam bokschilar musobaqasi paytida ko'proq javobgarligi bo'lgan vazifalarni bajaradi. U jang borishiga rahbarlik qiladi, sportchilarni diqqat bilan kuzatib, ularning harakatlariga baho beradi va hech qanday qoidabuzarlikka yo'l qo'ymaydi. Ringdagi hakamning mahorati avvalombor shundan iboratki, u musobaqa qoidalarini, o'z huquq va majburiyatlarini, boks texnikasi va taktikasi bilimlarini yaxshi bilishi, musobaqa mohiyatini aniq tushunishi, sportchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi kerak.

Musobaqalar bosh kotibi bosh hakamning nazorati ostida bo'lgan kotibiyat ishiga boshchilik qiladi. Uning ishi musobaqalar o'tkazish uchun kerakli hujjatlarni yetarli miqdorda tayyorlashdan boshlanadi. Vazn kategoriyalari bo'yicha grafiklar tuziladi.

Musobaqalar mundarijasiga asoslanib, har bir vazn kategoriyasi ichida musobaqalarning navbatdagi doirasi uchun navbat o'rnatiladi.

Kotib tomonidan tuzilgan juftliklar soni tomonidan tasdiqlanib, ko'paytiriladi va qatnashchilar xabardor qilinadi.

Musobaqa jarayonida kotib musobaqa bayonnomasini olib boradi. Jamoalar musobaqalarida ayrim ishtirokchilar va jamoalar to'plagan ochkolar hisoblanadi.

Musobaqaning bosh hakami bokschilarni musobaqa jarayonida kuzatadi va tibbiy yordam ko'rsatadi. Qur'a tashlashni bosh hakam jamoa vakillari qatnashgan holda o'tkaziladi. Qur'a tashlash tugagach, uning natijalari vazn og'irligini o'lchash bayonnomasiga va ishtirokchilarning shaxsiy varaqalariga yozilib, juftliklar tuzishga kirishiladi.

Muhokama va xulosalar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xalqaro boks musobaqalari sport turlari bo'yicha xalqaro federatsiyalar tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlardan tashqari zamonaviy sport harakatining huquqiy me'yorlari, jumladan, Xalqaro Olimpiya Xartiyasi, Dopingga qarshi kurash Konvensiyasi, Irqchilikka qarshi huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi.

Umuman olganda xalqaro musobaqani muvaffaqiyatli o'tkazish asosan quyidagi omillarga bog'liq: musobaqani muvaffaqiyatli o'tkazish uchun bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar va majburiyatlarni aniqlash; ushbu vazifalar va majburiyatlarni

ijrochilar o'rtasida oqilona taqsimlash; rahbarlar, menejerlar va boshqa xodimlarga o'z vazifalarini samarali bajarishga imkon beradigan maqbul ish jarayoni va tashkiliy tuzilmani ta'minlash zarur.

Аннотация. В статье рассмотрены такие вопросы, как понятие международных спортивных соревнований, общие правила их проведения, регламентация международных спортивных соревнований, а также определен порядок действий, необходимых для организации успешного, результативного международного спортивного мероприятия.

Ключевые слова: международные спортивные соревнования, организаторы международных спортивных соревнований, правила проведения международных соревнований, оргкомитет международных соревнований, программа соревнований.

Annotation. The article discusses such issues as the concept of international sports competitions, general rules for their conduct, regulation of international sports competitions, and defines the procedure necessary for organizing a successful, productive international sports event.

Key words: international sports competitions, organizers of international sports competitions, rules for holding international competitions, organizing committee of international competitions, competition program.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Handbook on international sports law / edited by James A.R. Nafziger, Stephen F. Ross. Cheltenham, UK; Northampton, MA, USA. : Edward Elgar Publishing, 2011. – 584 p.
2. Алексеев С.В. Международное спортивное право: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлениям 030500 «Юриспруденция» и 032101 «Физическая культура и спорт» / Под ред. П.В. Крашенинникова. – М.: Юнити-Дана: Закон и право, 2008. – 895 с.
3. Алексеев С.В. Олимпийское право. Правовые основы олимпийского движения: Учебник / Под ред. П.В. Крашенинникова (Гриф УМС «Профессиональный учебник»). – М.: Юнити-Дана; Закон и право, 2010. – 687 с.
4. Хаётов, А. (2023). ХАЛҚАРО ОЛИМПИА ҚЎМИТАСИНИНГ МУХТОР МАҚОМИ ВА ТУРЛИ ХУҚУҚ СУБЪЕКТЛАРИ БИЛАН МУНОСАБАТЛАРИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/2), 300–307. <https://doi.org/10.47390/B1342V3SI2Y2023N40>
5. Хаётов, А. (2023). Халқаро олимпия қўмитаси фаолиятини тартибга солишда олимпия хартиясининг роли. Jamiyat Va Innovatsiyalar, 4(2), 243–250. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss2-pp243-250>
6. Хайотов, А. (2023). Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining xalqaro huquqiy layoqati masalalari. Sport Ilm-Fanining Dolzarb Muammolari, 1(1), 95–98. Retrieved from <https://sport-science.uz/index.php/journal/article/view/24>
7. Olympic Charter. IOC, In force as from 8 August 2021. (2021) // <https://stillmed.olympics.com/media/Document%20Library/OlympicOrg/General/EN-Olympic-Charter.pdf>
8. <http://www.olympicboxing.uz/documents/> Xalqaro Boks Uyushmasi Nizomi.